

ARAB TILIDAGI MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI VA UNING TURLARI TAHLIL QILINADI

*Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti Arabshunoslik oliy maktabi*

Xabibullayeva Robiya

Ilmiy rahbar: PhD

Umarova Nodira Ismatovna.

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilidagi moslashmagan aniqlovchi – izofa birikmasining grammatik xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida B.Z. Xalidovning “Учебник арабского языка”, Ne’matullo Ibrohimovning “Arab tili grammatikasi” hamda arab tilidagi “الدروس النحوية” manbalari qiyosiy asosda o‘rganildi. Izofa birikmasining tuzilishi, muzof va muzof ilayhning grammatik funksiyalari, aniqlik va noaniqlik kategoriyalari hamda qaratqich kelishigi bilan bog‘liq grammatik qoidalar turli misollar yordamida yoritib berildi. Shu bilan birga, ikki kelishikli otlarning izofa tarkibida qo‘llanish xususiyatlari arab manbalari asosida izohlandi. Tadqiqot natijalari arab manbalarida izofa mavzusining kengroq, chuqurroq va batafsilroq bayon qilinganini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Izofa, moslashmagan aniqlovchi, muzof, muzof ilayhi, qaratqich kelishigi, aniqlik artikli, arab tili grammatikasi, so‘z birikmasi, majrur, tanvin.

Turli tillarda so‘z va so‘z birikmalari mavjud bo‘lib, ayrim hollarda alohida olingan bir so‘z mustaqil ma’noni ifodalasa, ikki yoki undan ortiq so‘zning birikishi natijasida mutlaqo yangi ma’no yuzaga kelishi mumkin. So‘z birikmasi – grammatik va mazmun jihatdan o‘zaro bog‘langan ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zdan tashkil topgan birlik hisoblanadi. Bunday birikmalarda so‘zlar bir-birini mazmunan to‘ldirib keladi. Masalan: oq bulut, yaxshi bola, darsni tayyorlamoq, uyning eshigi kabi birikmalar fikrni aniq va to‘liq ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada arab tilidagi moslashmagan birikma – izofaning shakllanishi, grammatik xususiyatlari hamda uning asosiy turlari tahlil qilinadi.

B.Z. Xalidovning 2007-yilda qayta nashr etilgan darsligida izofa mavzusi quyidagicha izohlanadi: arab tilida bir-biriga tobelanib keluvchi aniqlovchi birikmalar keng qo‘llanadi. Bunday birikmalarda aniqlanmish o‘zidan keyin kelgan aniqlovchining qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi, aniqlovchi esa aniqlanmishni mazmunan belgilab beradi. Izofa tarkibidagi aniqlanmish “ال” aniqlik

artiklisiz va tanvin qo'shimchalarisiz qo'llanadi, biroq u kelishik jihatdan turlanish xususiyatini saqlab qoladi. Arab tilida bu kabi birikmalar “إضافة” — izofa deb ataladi.¹

Izofa birikmasi ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi: birinchi qism muzof (مضاف), ikkinchi qism esa muzof ilayh (مضاف إليه) deb ataladi. Muzof izofa birikmasining asosiy qismi bo'lib, u predmet yoki tushunchani bildiradi va o'zidan keyin kelgan muzof ilayh orqali aniqlanadi. Grammatik jihatdan muzof “ال” aniqlik artiklisiz hamda tanvin qo'shimchalarisiz qo'llanadi, biroq gapdagi sintaktik vazifasiga ko'ra kelishiklarda turlanish xususiyatini saqlab qoladi. Mudof ilayhi esa har doim qaratqich kelishigida (majrur holatda) keladi va izofa birikmasining ma'nosini to'ldirib, aniqlik yoki noaniqlik darajasini belgilaydi. Ya'ni, agar muzof ilayh aniqlik artikli bilan kelsa, butun izofa birikmasi aniq ma'noni ifodalaydi; aksincha, muzof ilayh noaniq holda qo'llansa, izofa ham noaniq hisoblanadi. Shu sababli izofada aniqlik kategoriyasi birinchi qism orqali emas, aynan ikkinchi qism orqali yuzaga chiqadi.

Masalan:

بابُ غرفةٍ – “xonaning bir eshigi” (noaniq izofa)

بابُ الغرفة – “xonaning eshigi” (aniq izofa)

Birinchi misolda غرفةٍ so'zi tanvin bilan kelgani sababli birikma noaniq ma'noni bildiradi. Ikkinchi misolda esa الغرفة aniqlik artikli bilan qo'llanib, butun birikmaga aniqlik ma'nosini yuklamoqda.

Xuddi shu grammatik holat muannas jinsdagi otlarda ham kuzatiladi:

نافذةُ غرفةٍ – “xonaning bir derazasi” (noaniq)

نافذةُ الغرفة – “xonaning derazasi” (aniq)

Mazkur misollardan ko'rinadiki, izofa birikmasida muzofning grammatik shakli deyarli o'zgaraydi; asosiy o'zgarish muzof ilayh orqali yuzaga keladi. Aynan muzof ilayhning aniqlik yoki noaniqlik holati butun birikmaning semantik xususiyatini belgilab beradi. Bu hol arab tilidagi izofa qurilmasining muhim grammatik belgilaridan biri hisoblanadi.

Arab tilida aniqlik artiklisiz ham aniq hisoblanadigan so'zlar bor. Bular - atoqli otlar (ismlar va joy nomlari), olmoshlar (kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, nisbiy olmoshlar) va boshqalar. Agar izofaning muzof ilayhi qismi aniqlik artiklisiz ham aniq hisoblanadigan so'zlar bilan kelsa, izofa birikmasi aniq hisoblanadi. Masalan:

كتابُ محمدٍ - (aniq) Muhammadning kitobi

Bu birikma mutlaq aniq hisoblanadi, bu birikmaning ikkinchi qismi bo'lgan muzof ilayhiga hech qachon aniqlik artiklini berolmaymiz, agar كتابُ محمدٍ desak xato hisoblanadi.

قلمُ فاطمةٍ - (aniq) Fotimaning qalami

هاتفُ فاطمةٍ - (aniq) Fotimaning telefoni

¹ Б.З.Халидов 2007 100-bet

Bu birikma ham aniq hisoblanadi, chunki muzof ilayhi atoqli so'z, mana shu yerda aynan izofa qoidasi nega moslashmagan aniqlovchi deb yuritilganlik sababini ham ko'rishimiz mumkin.

Birikmaning birinchi qismi muzakkar ya'ni erkak jinsida, ikkinchi qismi esa muannas ya'ni ayol jinsidadir. Yuqorida ta'kidlanganidek izofaning ikkinchi qismi doim qaratqich kelishigida bo'lishi kerak ammo bu qoida 3ta kelishikda to'liq turlana oladigan otlarga taaluqlidir. Bu qoidada 2 kelishikda turlanadigan otlardan mutasnodir. Chunki ularning qaratqichda turganlik holatini kasra emas fatha bildiradi. Shu sababli ham fotima so'zi fathalidir. Bunga misol qilib ko'p so'zlarni keltirish mumkin, masalan:

مركزُ توشقند – (aniq) Toshkentning markazi

لباسُ عائشة – (aniq) Oishaning ko'ylagi

Moslashmagan aniqlovchi mavzusi “Arab tili gramatikasi” nomli 2024-yilda nashr qilingan Ne'matullo Ibrohimov kitobida quyidagicha tushuntiriladi. Arab tilida moslashmagan aniqlovchi ko'pincha o'zbek tilidagi sifatlovchi aniqlovchilarga o'xshab ketsa, o'zbek tilidagi qaratqich aniqlovchilarga (“shaharning darvozasi”, “fakultet binosi” kabi) ko'proq mos keladigan ibora moslashmagan aniqlovchidir. Moslashmagan aniqlovchi bilan aniqlanishdan tashkil topgan birikma arab tilida – إضافة (idofatun) deyilib, uni tashkil etuvchi aniqlanish مضاف (mudofun) muzof, moslashmagan aniqlovchi esa مضاف إليه (mudofun ilayhi) muzof ilayhi deb yuritiladi.

Izofada muzof ilayhi moslashgan aniqlovchi kabi aniqlanishdan keyin keladi, lekin ular o'rtasida to'rt jihat bo'yicha moslashuv mavjud emas. Aksincha, izofada muzof bilan muzof ilayhining o'zaro munosabatga kirishuvining boshqacha xarakteri mavjud, ya'ni muzof ال artiklisiz va tanvin qo'shimchasiz keladi, muzof ilayhi esa har doim qaratqich kelishigida keladi. Masalan:

كتابُ طالبٍ - (nomalum) studentning kitobi

بابُ بيتٍ - (nomalum) uyning eshigi

Muzof ال artiklini qabul qilmaydi. Uning aniq-noaniqligi muzof ilayhining holatiga bog'liq. Agar muzof ilayhi aniq holatda bo'lsa, muzof ham aniq holatda hisoblanadi. Masalan:

كتابُ الطالب – (ma'lum) studentning kitobi

بابُ البيت – (ma'lum) uyning eshigi

Gapdagi vazifasiga qarab, izofa har uch kelishikda kelishi mumkin. Bunda faqat izofaning muzof qismi kelishikda turlanadi, muzof ilayhining kelishigi o'zgarmaydi.²

Izofaning vazifasi – bir predmetning ikkinchi predmetga (shaxsga) tegishli yoki mansub ekanligini bildiradi va u o'zbek tilida qaratqich kelishigi bildirgan ma'noga mosdir. Masalan:

² “Arab tili gramatikasi” Ne'matullo Ibrohimov 1-jild 66-bet

غرفة الطالب – talabaning xonasi

باب المعهد – insitut eshigi

حديقة المدينة – shahar bog'i3.

B.Z.Xalidov va Ne`matullo Ibrohimov kitoblarini solishtirgan holda, izofa birikmasida muzofning holati muzof ilayhiga bog'liqligini, u atoqli so'z bo'lsa birikma aniq hisoblanishini, noaniq bo'lsa birikma noaniq holatda ekanini, jinsda moslashuv yo'qligini va birikmaning ikkinchi bo'lagi qaratqich kelishigida kelishini ko'rib chiqdik . Har ikkala kitobda ikki kelishikli so'zlarning izofa birikmasida qanday holatda bo'lishi keltirilmagan. Ammo biz bu qoidani yuqorida keltirib o'ttik. Ne`matullo Ibrohimovning “Arab tili gramatikasi” nomli 2024-yil nashr qilingan kitobida izofa bitikmasi chuqur va na`munali ko'rsatilgan. Bu mavzu arab tiliga xos bo'lgani sababli biz arab manbasi bo'lgan *الدروس النحوية* kitobiga ham murojaat qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi, bu mavzu quyidagi kitobda aniq va ravshan tushuntirilgan.

إذا نُسب إليه اسمٌ سابقٌ، نحو: خادم الأمير، و سور المدينة، و يسمى: "مضافا إليه"، و ما قبله: "مضافا" إذا سمعنا إنسانا يقول: حضر اليوم خادم. فلا نعرف أي خادم خادم يريد: أخدم الأمير، أم خادم القاضي، أم خادم إنسان آخر؛ لأنه لم ينسبه لأحد. فإذا قال: حضر اليوم خادم الأمير. عرفنا المراد بالخادم؛ لأنه تعين بنسبته للأمير.

قلظ: خادم. يسمّى: "مضافا"، و لفظ: الأمير. يسمّى: "مضافا إليه" و مثل "خادم الأمير":

"سور المدينة"، و "باب البيت" و "عنان الفرس" و ما أشبه ذلك من كل اسمين نسب أولهما إلى الثاني.4

و لا يكون المضاف إليه إلا مجرورا.

Ya'ni: Bir ism (ot) o'zidan oldingi ism (ot)ga nisbat berilsa, ikkinchi ism (ot) deyiladi. Masalan:

خادم الأمير – shahzodaning xizmatchisi

سور المدينة – shaharning devori

Gramatikada ikki so'z orasida bog'lanish bo'ladi. Birinchi qismdagi so'z ناقص (to'liq ma'no bermaydi), ikkinchi qismdagi so'z esa birinchini aniqlab beradi. Masalan: خادم "xizmatchi" so'zi umumiy so'z bo'lib, kimning xizmatchisi ekanligi noaniq. Ikkinchi kelayotgan ot uni aniqlab beradi. Masalan: خادم - xizmatchi, kimning xizmatchisi? Podshohnikimi? Qozinikimi? Do'stnikimi? noaniq. Ammo خادم الأمير - shahzodaning xizmatchisi. Endi ma'no mukammal bo'ldi. Shuning uchun ulamolar aytadi: الإضافة تفيد التخصيص أو التعريف "Izofa - so'zni xoslaydi yoki aniqlashtiradi.

المضاف إليه لا يكون إلا مجرورا - mudof ilayhi doim majrur (qaratqich kelishigida) bo'ladi. Shuning uchun الأمير – so'zi qaratqich kelishigida kelgan. جرّ - qaratqich kelishigi ba'zan kasra (ِ - ِ), ba'zan ya (ي), ba'zan ikki kelishikli so'zlarda fatha bilan bo'ladi. masalan:

كتاب الطالب – talabaning kitobi (kasra) bilan qaraqqtqich kelishigida

كتاب الطالبين – ikki talabaning kitobi (ya harfi) bilan qaratqich kelishigida

³ “Arab tili gramatikasi” Ne`matullo Ibrohimov 1-jild 70-bet

⁴ الدروس النحوية 58 صفحة

كتاب زينب – Zaynabning kitobi (fatha) bilan qaratqich kelishigida

إضافة تسقط التنوين "Izofa birikmasining birinchi qismidagi so'z tanvinsiz keladi.

"Izofa tanvinni tushiradi". Chunki tanvin noaniqlik belgisini bildiradi ammo izofa esa so'zni bog'laydi va aniqlik beradi.

Matndagi muhim nuqta shuki: **حاضر خادم** - Xizmatchi keldi. Biz hali qaysi xizmatkor ekanini bilmaymiz. Ammo **حاضر خادم الأمير** - shahzodaning xizmatchisi keldi. Bu yerda xizmatkor ma'lum bo'ldi. Demak muzof ilayhi ya'ni birinchi qismdagi otni aniqlaydi yoki xoslaydi.

خادم الأمير حاضر

خادم – مبتدأ و مرفوع و هو مضاف

الأمير – مضاف إليه و مجرور بالكسرة

حاضر – خبر و مرفوع

Shahzodaning xizmatchisi keldi.

Xizmatchi – ega, bosh kelishikda va u muzof

Shahzoda – muzof ilayhi va kasra bilan qaratqich kelishigida

Keldi – kesim, bosh kelishikda

Muzof ilayhi – izofa brikmasida ikkinchi kelgan ot bo'lib, birinchi ismni aniqlaydi yoki xoslaydi va doim qaratqich kelishigida (majrur) holatda keladi.

Masalan:

كتاب الطالب – talabaning kitobi

باب البيت – uying eshigi

نور العلم – ilm nuri

خادم الأمير – shahzodaning xizmatchisi

Quyidagi misollarda birikma butkul aniq holatda, chunki muzof ilayhi aniq holatda. Agar aniqlik artiklisiz yozilsa, birikma noaniq holatga o'tadi.

Quyida arab manbasi hisoblangan **الدروس النحوية** kitobidan olingan sharhni keltirdik. Bu kitob izofa birikmasini to'liq holda, barcha shakldan tushuntirdi. 3ta kitob "Arab tili grammatikasi" nomli Ne'matullo Ibrohimov kitobi va B.Z. Xalidov kitobi va **الدروس النحوية** kitobida keltirilgan moslashmagan aniqlovchi mavzusini keltirdik. Ikki o'zbek kirobida ikki kelishikli otlarinh izofa birikmasida bo'ladigan holati yoritilmagan. Ammo arab manbasida bu mavzu barcha tomonlama to'liq keltirilgan. Tadqiqot natijasida izofa birikmasi arab tilining muhim sintaktik birliklaridan biri ekani hamda arab manbalarida ushbu mavzu o'zbek tilidagi manbalarga nisbatan kengroq va mukammalroq yoritilgani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi. 1-jild. Toshkent, 2024.
2. Xalidov B.Z. Учебник арабского языка. Toshkent, 2007.
3. القاهرة، 2009. الدروس النحوية. حفني ناصف وآخرون